



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

**PEDIATR**№ 21-22 (918-919)  
8-dekabr, chorshanba  
2021-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
mardan chiga  
boshlagan

## BAXTIMIZ VA KELAJAGIMIZ KAFOLATI

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Mustaqilligimizning mevasi, mahsuli sifatida dunyoga kelgan Bosh Qomusimiz 1992-yil 8-dekabrdan o'n ikkinchi chiqariq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan. Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun – 8-dekabr mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e'lon qilingan va har yili katta tantana sifatida yurtimiz bo'ylab nishonlanadi.

Konstitutsiya – baxtimiz kafolati, hayotimizning muhim mezoni hisoblanadi. Jamiyatimizda har qaysi oila va fuqarolarimiz hayotida qanday ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan bo'lsa, bularning barchasini Konstitusiyanamizda belgilab qo'yilgan talab va qoidalarning hayotimizdagi amaliy ifodasi deb qabul qilamiz. Unda O'zbekiston fuqarolarining nurli kelajagi, orzu-istiklari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari kafolatlangan.

Bu yil Mustaqillik qomusi – O'zbekiston Respublikasi-

ning Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga 29 yil to'lmoqda. Konstitutsiyaning tengdoshlari ayni navqiron, jismoniy va aqliy imkoniyatlarning eng yuqori cho'qqilarini zabit etadigan yoshda. Inson huquq va erkinliklari kafolatlangan demokratik davlatda ulg'ayayotgan yoshlarning ta'lim, sport, madaniyat, texnika, san'at sohalarda erishayotgan yutuqlari ko'nglimizni faxrga to'ldirish bilan bir qatorda, umrguzaronlik qilayotgan vataningda hayotdan mammunlik hissini mustahkamlaydi. Yoshlar kamoliga kamabasta bo'lish Konstitutsiyaviy va insoniy burchimiz.

Yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida bunga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Yurtimizda kechayotgan keng qamrovli islohotlarning zamiriда inson huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish kabi bosh maqsad va ezgu g'oyalar yotibdi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda ja-

miyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalariini aholi ongiga singdirish ishlarini doimiy olib borish lozim. Qolaversa, yoshlarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, maktab davridan ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish eng muhim masalalardan biri bo'lib turibdi, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun albatta birinchi navbatda Konstitutsiyada belgilangan normalarni bilishdan boshlash kerak.

Bugun Yurtboshimiz tashabussi bilan qabul qilinayotgan yangi qonunlar va ularning natijasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi, yurtimizda tinchlik va adolat hukm surishiga, fuqarolarning farovon hayotiga qaratilgan. Ayni islohotlarda esa Konstitutsiyamiz o'rni beqiyos.

Konstitutsiyamizning barqarorligi, uning eng muhim prinsiplari va normalarini har bir O'zbekiston Respublikasining fuqarolari to'g'ri anglab olmog'i zarur. Chunki u ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini, vatanparvarlik tuyg'ularini, ta'bir joiz bo'lsa, xalqning vijdoni va diyonatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, biz uchun doim muqaddas. Konstitutsiyaviy jamiyat millatni nurli kejajakka yetaklaydi.

## KREDIT-MODUL – TALABANING EHTIYOJLARIGA QARATILGAN TIZIM

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi joriy etilgan. Xo’sh, mazkur tizimni o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning afzalliklari nimada? Mazkur tizim nega “kredit-modul” deb nomlanadi? Mavzuga doir savollar bilan Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti o‘quv-uslubiy ishlar bo‘lim boshlig‘i Nigora Xikmatovna Isoxonovani suhbatga chorladik.



**– Kredit-modul tizimi, uning maqsadi va mohiyati haqida gapirib bersangiz?**

– Ta’lim jarayonlarini kredit-modul tizimida tashkil qilish o‘quv jarayonining samarasini keskin oshiradi. Eng avvalo, talabalarga tanlov imkoniyatining berilishi ularning bilim olishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi. O‘tgan davr mobaynida orttirilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, talabaga o‘qituvchini tanlash imkonini berish ularni faollashtiradi, ular yuqori bosqich talabalari bilan tez aloqaga kirishib, muhokama qilishni boshlashadi. Taqdim qilingan fan o‘qituvchilar haqidagi ma’lumotnomalar sinchkovlik bilan o‘rganilib, o‘qituvchilarining fanlariga yozilish jarayonlari tobora individuallashib boradi.

**– Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak?**

– O‘zbekiston OTMlarda kredit-modul tizimini joriy qilishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad jahon oliy ta’lim tizimiga, Bolonya jarayonlariga qo‘shilish, reyting bo‘yicha dunyoning mingtalik OTMlari qat-

origa kirishdir. Shunday ekan, ta’lim dasturlarini shakkantirishda, o‘quv rejalarini tuzishda jahonning ilg‘or OTMlarning ta’lim dasturlariga mo‘ljal olish maqsadga muvofiqdir, chunki kelgusida ular bilan akademik almashinuvlarni, qo‘shma dasturlarini, akademik kreditlarni o‘zaro tan olishni yo‘lga qo‘yish zarur bo‘ladi.

**– Kredit-modul o‘qitish tizimi o‘quv jarayonining qanday shakllaridan tashkil topadi?**

– Kredit-modul tizimining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri bu jarayonning ta’lim natijalariga yo‘naltiliganligidir. Ya’ni, kredit-modul tizimida ta’lim mazmuni “ta’lim natijalari” asosida rejalshtiriladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, talabalarga o‘qitiladigan fanlar va ularning mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyat turi uchun qanchalik zarurligidan kelib chiqib shakkantiriladi. Birinchisi – bakalavriat va magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha kompetensiyalar jadvalini shakkantirish, professiogrammalarни tuzish zarur. Bu juda aniq, lekin katta hajmdagi ish hisoblanadi.

Ikkinchisi – o‘quv rejalarini xorijiy tahlil qilish zarur. Bunda yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalarini va sillabuslari mazmuniga mo‘ljal olinadigan bo‘lsa, kamroq xatoga yo‘l qo‘yiladi va bu ishni mu-taxassislik kafedralarining mas’ul o‘qituvchilarining imkoniyatlari darajasida hal qilish mumkin.

**– Jahon ta’limidagi tajribalar qanday. Qaysi oliy o‘quv yurtlari foydalangan shu tizimdan, natijalari qanday bo‘lgan?**

– Ushbu tizimni yaratish uchun o‘tgan asrning 70-yillardan Yevropadagi barcha oliy ta’lim muassasalarining integrasiyasini ta’minlash, oliy ta’limning yagona

standartini yaratish, talabalar va o‘qituvchilar mobilligini yo‘lga qo‘yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malakasi hamda ko‘nikmasiga qo‘yiladigan ballarni unifikasiya qilish bilan bog‘liq bir qator muammolarni yechishga qaratilgan sa’y-harakatlar boshlab yuboriladi. Mazkur harakatlarning samarasoi o‘larоq, 1999-yilda Italiyaning Bolonya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan Bolonya deklaratsiya imzolanadi. Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida 48 ta mamlakat ishtirok etadi. Ularning orasida MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, Qozog‘iston va Belarus respublikasi ham bor.

Bolonya deklaratsiyasining eng muhim jihatlaridan biri oliy ta’lim muassasalarining yagona “kredit tizimi” dan foydalanish (ECTS) ga asoslanadi. Kredit yoki kredit birligi – o‘quv rejasida hisobga olingan har qanday o‘quv faoliyatining qiymat ko‘rsatkichi hisoblanadi. ECTS tizimi Yevropa va umuman, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari talabalariga katta afzalliklarni taqdim etadi. Masalan, talaba ta’lim olayotgan universitetida egallagan akademik bilimlarini shu tizimga a’zo mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida tan olinishini, ya’ni o‘ziga xos “konvertatsiyasi” ni kafolatlaydi. Shu bilan birga, mazkur tizim a’zolariga talabalarini boshqa OTMga o‘qishini tiklash, ko‘chirish va tugatish imkoniyatini beradi.

**– Oliy ta’limning kredit-modul tizimida talabalarini nimalar kutmoqda?**

– Kredit-modul tizimi mazmuan talabaning ehtiyojlariga qaratilgan tizimdir. Shu sababli, rivojlangan davlatlar OTMlarda talabalar

bilan alohida bo‘lim (*Registrar ofisi*) shug‘ullanadi.

Kredit-modul tizimining amal-dagi ta’lim tizimidan farq qiluvchi jihatlaridan yana biri shundaki, bunda fanlar modulli asosda tashkil qilinadi va o‘qitiladi. Ya’ni, har bir modul (*fan va uning bo‘limi*) kirish nazorati, nazariy materiallar, amaliy va laboratoriya ishlari materiallar, mustaqil ish topshiriqlari, keyslar, nazorat materiallar, testlar, tarqatma materiallar, glossariy, adabiyotlar, chiqish nazoratlari va hokazo qism-lardan tashkil topgan bo‘ladi.

Kredit-modul tizimining afzal-liklari haqida gapirganda, albatta, uning imtihonni qayta topshirish-larga chek qo‘yishi va qayta top-shirish o‘rniga qayta o‘qishga im-koniyat yaratib berishini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Bu tizimda fanni bиринчи уринишда топшира олман ган талабага, keyingi semestrlar davomida va yozgi semestrda pul-

lik to‘lov asosida qayta o‘qishiga sharoit yaratiladi. Bu jarayon talabalarning o‘qishga bo‘lgan mas‘uliyatini oshiradi. Ularning professor-o‘qituvchilarning ortiqcha vaqtlarini olishlariga chek qo‘yadi. Ilg‘or talabalarga semestr boshida ekstern imtihon topshirish orqali kreditlarni oldindan olish imkonini ham taqdim etish mum-kin. O‘quv rejalar shakllangach, tanlov fanlari katalogi tuzilib, ta-labalar tanloviga taqdim qilinadi. Bunda o‘quv rejalaridagi fanlar talabalarning qiziqishlariga, kadrlar iste’molchilarining talablariga qay darajada mosligi muhim ahami-yatga ega.

– Kredit-modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari qanday? Xususan TOSHPTI misolida gapirib bersangiz?

– Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida kredit-modul tizimiga 2020-yildan o‘tilgan bo‘lib, barcha

o‘quv uslubiy hujjatlar (*malaka talablari, modul dasduri, o‘quv rejalar, o‘quv-uslubiy majmualar*) qayta ko‘rib chiqildi va tasdiqlangan. Hozirgi kunda 1-2-kurs talaba-lari kredit-modul tizimida o‘qitiladi. O‘quv reja asosida har bir fanni tugatgan talaba shu fan bo‘yicha kreditlarni yig‘adi.

Respublika uchun ta’lim xiz-matlari raqobatbardoshligini, olim-lar va o‘qituvchilarimiz malakasini oshirishga, xalqaro ta’lim sohasida O‘zbekistonning o‘rnini mustah-kamlash uchun zarur shart-sharoit yaratishga asos bo‘ladi. Talabalar va akademik almashinuvlar tajribasi globallashgan dunyoda O‘zbekiston kadrlarining saviyasi oshadi, rivoj-langan davlatlardagi tajribalarini o‘zimizda ham tatbiq etishga imkon beradi.

**Shahnoza ADUHOSHIMOVA**  
*suhbatlashdi*

## GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH – BARQAROR RIVOJLANISHDIR

Gender tenglik nima? Gender tenglik – bu mamlakat ayollar va erkaklar hayotining turli sohalarida teng imkoniyat va ma’suliyat bor jihatlaridan biri, ya’ni huquqiy tenglikdir.

Bugungi kunda barcha rivoj-langan mamlakatlar qatorida O‘z-bekistanda ham gender tengligini ta’minlash bo‘yicha bir qator tad-birlar amalga oshirilmoqda. Shu mavzu yuzasidan yurtimizda qabul qilinayotgan yangi qaror, farmonlar bilan bir qatorda joylarda targ‘i-bot ishlari ham olib borilmoqda. Jumladan, 2021-yil 18-noyabrda Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti xotin-qizlar kengashi tomonidan xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tengligi va ayollar ni zo‘ravonlik, zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivo-jlantirish hamda xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini

oshirish maqsadida “Gender tengli-ki ta’minlash va barqaror rivojlanish” mavzusida seminar-trening bo‘lib o‘tdi.

Xotin-qizlar kengashi raisi Us-ta-Azizova Dilnoza Axrarovna boshchiligidagi olib borilgan bu seminarda, jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida gender tenglikni taminlashning ijtimoiy ahamiyati va ayollarning injenerlik sohasidagi faoliyati kabi bir qator masalalar ko‘rib chiqildi.

Umuman olib aytganda, gender tenglik – bu mamlakatning demokra-tik taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi indikator. Chunki mutaxassislarining fikricha, erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari bir necha barobar yuqori natija ko‘rsatar ekan. Shuning uchun ham mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlari bir necha

yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Jum-ladan, ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ayollarni himoya qilishning institu-sional asoslarini takomillashtirish, aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish, huquqni qo‘llash amaliyoti-da ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas‘ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosida o‘qitish bo‘yicha samarali islohotlar amalga oshirilayotgani seminar-tren-ing qatnashchilariga aytib o‘tildi.

Ushbu seminar-trening ishtirok-chilarning o‘zlariga bo‘lgan ishon-chini mustahkamlash bilan birga ke-lajak uchun yangi rejalar va orzular bergani shubhasiz.

**Muborak AHMEDOVA,**  
*ToshTPI Yoshlar masalolari va  
ma’naviy-ma’rifiy ishlari  
bo‘yicha proektor*

## MUQADDASDIR VATAN BAYROG'I

Yer yuzida ikki yuzdan ortiq davlat bor va albatta, har bir davlatning o‘z ramzlari, bayrog‘i bor. Har bir bayroq ayricha rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon hilpirab turgan bayrog‘imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo‘lmasligimizni ko‘rsatib turadi. Shuni aytishimiz lozimki, bayroq qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz ham yurt bayrog‘ini muqaddas bilib, uni ko‘z qorachig‘idek asraganlar. Davlatchiligidan tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g‘alaba tug‘i hisoblangan.

Sohibqiron bobomiz zamonda bayroqni past tutish yoki sarbozning qo‘lidan tushib ketishi xosiyatsiz sanalgan. Bunga sohibqiron alohida e’tibor berган. Bayroqning pasaytirilishi mag‘lubiyat va ortga chekinish ishorasi bo‘lgan. Shuningdek, “Temur tuzuklari”da ta’kidlan-

shicha, dushman ustidan shijoat va mardlik ko‘rsatib, g‘alaba qozongan amirlar va sipohiy-larga davlat timsollari – tug‘ va nog‘ora in’om qilingan. Bu Sohibqiron davlatida sultanat ramzlari nechog‘lik baland maqom tutgani va ular qanday katta ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Jonajon vatanimizning muqaddas ramzlaridan biri bo‘lgan bayroq 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan bo‘lib, har yili shu sana yurtimiz bo‘ylab katta tantanalar bilan nishonlanadi. Shu munosabat bilan Toshkent Pediatriya tibbiyat institutida ham O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilinganining 30 yilligiga bag‘ishlangan “Muqaddasdir vatan bayrog‘i” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Unda Toshkent davlat yuridik universiteti davlat va huquq nazariyasi va tarixi kafedrasi professori Muxitdinova Feruza Abdurashidovna, Yunusobod tumani

“Adolat” sotsial-demokratik partiysi vakili A.A.Nosirov, 2-pediatriya fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan o‘rinbosari M.M.Alimova va 210 nafar talaba-yoshlar ishtirok etdi. Tadbirda ozod va obod Vatanimiz – O‘zbekistonning bayrog‘i ham bizni ulug‘ maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash’ala ekanligi ta’kidlandi. Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanishi xususida gapirildi.

Darhaqiqat, millatning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan bayrog‘imiz bugungi O‘zbekistonning hududida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi.

Vatan himoyasidek muqaddas burchni mardona o‘tash uchun bayrog‘imizni o‘pib qasamyod qilayotgan harbiylarimizning qalbidagi olovni, ko‘zlaridagi shijoatni ko‘rib faxrlanamiz, deya ta’kidladi instituti Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan o‘rinbosari M.M.Alimova. Darhaqiqat, toki bayroq bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. O‘zbekiston farzandlari dunyoning qaysi manzilida bo‘lmassisin, qanday yuksak natijalarga erishmasin vatan bayrog‘ini ardoqlaydi.

Tadbir talabalarning ong-u shuuridagi vatan tasvirining yana bir ko‘rinishini bayroq timsolida aks ettirdi.

**A.XUDAYBERDIYEV,  
Yoshlar bilan ishslash,  
ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi  
boshlig‘i**



## JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI

Mamlakatimizda har bir sohada izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar, yangilanishlar qatorida ayollar va qizlarga bo'lgan e'tibor ham kundan-kunga oshib bormoqda. Ularning bandligini ta'minlash, turmush tarzini yax-shilash va ba'zi ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida zarur chora-tadbirlar barcha kasb doirasida nozik xilqat vakillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Axborot asrida yurtimizda kechayotgan tub o'zgarishlarni kuzatish, ijtimoiy faoliyatimizga berayotgan nafini sezish qiyin emas. Yuragi uyg'oq kishi to'rt tomoniga boqqanida ham so'ngi yillarda vatanimizda ijtimoiy hayotimizning naqadar farovonlik sari yuz tutganining guvohi bo'ladi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida ham talaba-qizlarning bilim olishi, ijtimoiy himoyasi, yashash tarzida yurtimizda ayol-larga qaratilayotgan e'tiborning aks-sadosini yaqqol sezish mumkin. Jumladan, kelajakdagi millat onalarining odob axloqi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda ularga nisbatan zo'rovonlikning oldini olish masalasi bo'yicha talaba-qizlar o'rtasida tez-tez davra suhbatlari tashkil qilinadi. Dekabr oyiga mo'ljallangan navbatdagi uchrashuv-muloqoti ham shu ruhda bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Muxitdinova Feruza Abdurashidovna – Toshkent davlat yuridik universiteti davlat va huquq nazariysi tarixi kafedrasi professori, Ibragimova Shaxzoda Nabiyevna – Yunusobod tumani Xotin-qizlar masalalari bo'yicha hokim maslahatchisi, Usta-Azizova

Dilnoza Axrorovna – ToshPTI Xotin-qizlar kengashi raisi va Omonova Umida – ToshPTI "Olima ayollar" uyushmasi raisi kabilar ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar Xotin-qizlar kengashi a'zolari, professor-o'qituvchilar va talaba qizlar ishtirokidagi uchrashuvda sohaga doir ma'lumotlar, yangiliklar bilan o'rtoqlashdi. Tadbirda Toshkent davlat yuridik universiteti davlat va huquq nazariysi va tarixi kafedrasi professori Muxitdinova Feruza Abdurashidovna bugungi kunda yurtimizda 150 dan ortiq Oliy ta'lim muassasalari va filiallari faoliyat yuritib kelayotgani, yoshlarga ta'lim berish bilan birgalikda ularning barkamol ma'naviy kamol topishi yo'lida ham talaygina ishlar qilinayotgani haqida gapirdi. Barcha oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida xotin-qizlar, xususan, talaba-qizlarga uyuştirilishi mumkin bo'lgan tegajoqlik va zo'ravonlikning oldini olish hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 28-oktabrdagi 451-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida shu yil 28-oktabrdan e'tiboran Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi muassasa va tashkilotlarda ishlovchi professor-o'qituvchilar va xodimlar aloqa vositasi sifatida "himoya-otv-bot" tashkil etilganligini ma'lum qildi.

Yunusobod tumani Xotin-qizlar masalalari bo'yicha hokim maslahatchisi Ibragimova Shaxzoda Nabiyevna davlat tashkilotlari-da xodimlar va tashkilot o'rtasida tuziladigan mehnat shartnomalari xodimga munosib bo'lishi, professor-o'qituvchi, xodimlar, talaba-qizlar o'rtasida mavzuga



doir so'rovnomalari tashkil etilishi odob-axloq, etika va estetika yuzasidan bir qator o'rinli fikrlarni bildirdi. Muloqot-uchrashuvida barcha talabalarining bo'sh vaqtlanini mazmunli o'tkazish maqsadida muzey, teat va kinosaroylarga biletlar tashkil etilganligi va bunga mas'ul qilib guruh murabbiylari hamda tyutorlar biriktirilganligi haqida ma'lumotlar berildi.

Internet tarmoqlarida e'lon qilinayotgan xotin-qizlar masalasiga oid turli xabarlar, ko'ngilsiz holatlar, milliylik, o'zbek mentalitetiga zid xatti-harakatlar borasidagi fikrlarini mehmonlar taklifiga asoslanib talaba-qizlar ham bildirib o'tdi. Tadbirda axborot xuruji zamonida nimalarga ahamiyat qaratish kerakligi, millatning asl qizi qiyofasini asrash har bir vatandoshimizning burchi ekanligi bot-bot takrorlandi.

Uchrashuv qaroriga ko'ra: institut rahbariyati va talaba qizlar bilan doimiy davra suhbatlari olib borish, ularning o'qishda davomati, yashash sharoiti hamda turli salbiy xatallardan ogoh etish, zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib borilishi muhim vazifa qilib belgilandi.

**Dilnoza USTA-AZIZOVA,  
ToshPTI Xotin-qizlar  
kengashi raisi**

## OITS – ASR VABOSI



Tojdor virus 2020-yilning eng xavfli kasalliklari toifasiga kirganligi hech kimga sir emas. Lekin shunday kasalliklar ham borki, ular butun bir millat genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu OITSdir. Mazkur kasallik ijtimoiy kasallik, shuning uchun u keng ma'noda nafaqat iqtisodiy, siyosiy zarar keltiradi, shuningdek, oilaviy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy jihatdan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, kasallikning oldini olish, davolash, tarqalishini cheklash ishlarida aql-zakovat bilan ish tutish katta ahamiyatga ega. Buning uchun insondan inson nomiga munosib xatti-harakatlarni amalgalash oshirish talab etiladi. Har qanday sharoitda ham axloq, odob va o'zaro hurmat ruhida yashash, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilgan holda o'zini va o'zgani himoya qila bilishi, ma'naviy va madaniy javobgarlikni o'z burchi deb hisoblashi kerak bo'ladi.

OITS – bu orttirilgan immun tanqisligidir. Bu kasallikning aniqlanishi XX asrning oxiridagi insoniyat olamida eng muhim va eng dahshatli voqeа hisoblanadi. Barcha sohalar da ilm-fan yutuqlari berayotgan imkoniyatlari, rivojlanish yuqori bosqichlarda bo'lishiga qaramay hozirgi kungacha OITS XXI ASR VABOSI bo'lib qolmoqda.

Ushbu kasallikda organizmni ichki va tashqi zararli ta'sirlovchilardan himoya qiluvchi – immun tizimi virus ta'sirida izdan chiqadi. Agarda biz tegishli chora-tadbirlar-

ni qo'llamasak, sog'lom turmush tarziga rioya qilmasak, o'zgalar va o'zimizning salomatligimizga daxldorlikni his qilmasak ushbu masalada chegarasiz muammolar girdobida qolishimiz hech gap emas. Ogohlik, sergaklikni "ertaga" qoldirish nafaqat "qaltis" vaziyat yaratish, qolaversa "jinoyat" hisoblanadi. Chunki loqayd tomoshabin, beparvo qarab turuvchilarning "ertangi kuni" mavhumlik ichida qoladi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida 1-dekabr – "Xalqaro OITSga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan, "OITS – asr vabosi" mavzusida tadbir o'tkazildi.

Tadborda Din ishlari bo'yicha qo'mita Toshkent shahar boshqarmasi mutaxassis J.V.Meliqo'ziyev, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassis E.D.Norpo'latov, Toshkent Davlat yuridik universiteti dotsenti, Respublika ma'naviyat targ'ibotchilar jamiyatiga a'zosi, adabiyotshunos olim R.Qo'chqorov, O'zbekiston Respublikasi IIV mas'ul xodimi O.Yusupov, Yunusobod tumani II OFMB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik M.Raximov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i A.K.Xudayberdiyev, 2-pediatriya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinosari M.M.Alimova va 105 nafar talaba-yoshlar ishtirot etishdi.

Tadborda so'zga chiqqanlar yoshlarda OITSga qarshi immunitetni

oshirish borasida nutq so'zladilar va talaba yoshlar bilan jonli muloqot tarzida davra suhbatini olib bordilar. Tadbir qatnashchilari shu mavzuda o'zlarini qiziqtirgan diniy va dunyoviy savollariga soha mutaxassislaridan javob oldilar.

Shu jumladan, Toshkent Davlat Yuridik universiteti dotsenti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi targ'ibotchilar jamiyatiga a'zosi, adabiyotshunos olim Rahmon Qo'chqor o'z nutqida talaba yoshlarga har qanday kasalikning oldini olish uchun, avvalo, organizmizdagi ma'naviyat ruhining immunitetitini mustahlash zarur ekanligini ta'kidlab, OITS kabi kasaliklarga yengil qaramaslikni hayotiy misollar, ilmiy tahlillar bilan ayтиб o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, tadbir ishtirotchilariga mazkur kasallikning fojalari aniq va tiniq tasavvur, tushunchaga ega bo'lishlari uchun yetarli misol va ma'lumotlar bilan yetkazildi. Achinarlisi esa statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'yicha OITSga chalinayotganlar soni kun sayin o'sib bormoqda.

Har birimiz o'z salomatligimizning posbonimiz. Atrofga sinchkov nigh bilan boqish fuqarolik, insonlik burchimiz. Tadbir har bir kishi bu masalada jon kuydirmog'i darkorligini yana bir bor eslatdi. Bu kasallikning oldini olish, boshqalarni ham ogohlikka chaqirish uchun axborot, globallashuv asrida yashayotganlar – barcha OITS haqidagi ma'lumotlarni bilishining o'zi ham katta ahamiyatga ega, kasalikning oldini olishga tashlangan brinchi qadamdir.

Asrimiz vabosi bo'lgan OITS, giyohvandlik ofatidan xalqimizni va kelajak avlodni xalos etish, ularni moddiy-ma'naviy barkamollik sari yo'naltirishdek umumbashariy xayrlı ishlarda barchamiz birdek burchlimiz va kelajak uchun daxldormiz.

**Abdushukur MANNANOV,  
ToshPTI Teri-tanosil  
kasalliklari kafedrasi mudiri**

## TEATR HAYOT HAQIDA SABOQ BERADI

Bugungi o‘zbek teatri tarixiy meros va jahon teatri ijodidan ta-sirlangan holda eng dolzarb, sahna vositalariga boy, yangi dekoratsiyalar ila boyigan spektakllar bilan tomoshabinlarga manzur bo‘lib kelmoqda. Jumladan, O‘zbek Davlat drama teatri respublikamizdagi yetakchi teatrlardan biriga aylangan.

Institutimizda ma’naviy va ma’rifiy soatlarni to‘g‘ri tashkilashtirish maqsadida 3-dekabr kuni tyutorlarimiz hamrohligida kurs-doshlarimiz bilan ushbu san’at dargohiga tashrif buyurdik. Teatrga shuhrat keltirga spektakllardan biri, O‘zbekiston xalq artisti Baxtiyor Ixtiyorov rejissyorligida sahnalashtirilgan “Otasining qizi” spektaklini tamoshlo qildik.

“Otasining qizi” spektaklidagi voqealar o‘zbek xonadonlaridan birida bo‘lib o‘tdi. Boshqa ota-onalar kabi ushbu spektakl qahramonlari ota-onalar ham o‘z farzandi uchun munosib umr yo‘ldosh tanlash tashvishida bo‘lishadi. Xonadonga tashrif buyurgan ilk kuyovlikka nomzod Vohidjon, ya’ni Malika Yusupovna hamda Rustam Halilovichlarning farzandi edi. Ushbu oila o‘ta o‘qimishli, asosiy e’tiborni ilm-fanga bag‘ishlagan oila. Vohidjonning oilasida ayol kishining o‘rnini nihoyatda katta bo‘lib, Malika Yusupovnaning gaplari ular uchun misol qonun edi, desa ham bo‘ladi. Vohidjon matematika va fizika fanlarini yaxshi bilar va oilada o‘rgatilgan tartib-intizom oila a‘zolarini robotga aylantirib qo‘yan. Ular o‘z fikri bilan emas, “oila boshi” Malika Yusupovnaning fikrlari bilan ish yuritar edi.

O‘zbek xalqining urf-odatlariga zid bo‘lsa-da, Izzat Otaqulovich Malika Yusupovnaning gaplarini qaytara olmadni, Vohidjon va Nargiza yolg‘iz gaplashib olishlariga sharoit yaratildi. Uchrashuvda Vohidjonning fan haqidagi gaplari Nargizani zekrictirib yubordi. Nargiza hayotdagi sho‘xligini shu yerda ham ko‘rsatdi. Ularning dunyoqarashi bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi ayon edi. Hatto oilaviy tutumlar ham bir-biriga to‘g‘ri kelmadi.

Navbatdagi sovchilar qishloqdan bo‘lib, yigit o‘zini hind kinosidagi qahramon Jimiga o‘xshatar, ya’ni Erkintoy edi. U sovchilikka opasi – Mariyaxon bilan kelgan. Qizning otasi – Izzat Otaqulovich va Mariyamxon uzoqroq tanish bo‘lib, munosabatlari yaxshi ed. Erkintoy bilan Nargizani yolg‘iz qoldirishadi. Erkintoy jaydarigina bola bo‘lib, har bir harakatida qo‘polligi bilan Nargizani cho‘chitadi. Hind kinolarini ko‘p ko‘rgan Erkintoy xayolparast-roq bo‘lgani uchun Natgizaning dunyoqarashiga mutalaqo begona inson edi. Ushbu oilalar ham bir qarorda birlasholmaydi.

Navbatdagi sovchi Izzat Otaqulovichning sinfdoshi bo‘lib u qishloq-dagi tanishi Saidjonning o‘g‘li Azim-jonga Nargizani so‘rab kelgandi. Azimjon odam ko‘rsa seskanadigan, xunikkina bola edi. Nargiza uning suratini ko‘riboq, dod bunga tegmayman, deya qichqiradi. Bu sovchilar ham quruq qo‘l bilan qaytadi.

Kunlar o‘tdi. Bir kuni Otaqulovichlaring uyiga ona tomondan qarindosh yigit Baxtiyor keladi. U bir necha yildan beri o‘qishga kirish uchun imtihon topshirar, hech omadi chopmas edi. Bu yil ham o‘qishga kirish umidida katta ishtiyoq bilan shaharga kelgandi. Baxtiyorning Nargizada, Nargizaning esa Baxtiyorda ko‘ngli bor bo‘lib, bundan boshqalar xabarsiz edi. Bir kuni Izzat Otaqulovichning tushiga onasi kirib, Nargizaga eng munosib kuyov Baxtiyor ekanini aytadi. Bu tushni Izzat Otaqulovich oila davrasida aytganda

Baxtiyor hazillashib, buvjon keyingi safar to‘y kunini ham belgilab ket-salar yaxshi bo‘lardi, deydi. Sezib turganingga gizdekk, spektakl yaxshi yechim bilan tugadi.

Ushbu spektaklda milliy urf-odatlarimizdan biri bo‘lgan to‘y marosimi va xonadonga kelgan turli xarakterdagi sovchilarni kutib olish kulgili vaziyatlar uyg‘unligida ifodalanganligi bizni quvontirdi. Oilaning muhiti, qiz ko‘ngli, ijtimoiy qarashlariga mos kuyov tanlashning ahamiyati naqadar muhim ekanligi aks ettirilgan. Ayniqsa, bo‘lg‘usi kuyovning har tomonlama kelinga mos bo‘lishi kerakligi spektaklning asosiy g‘oyasi bo‘lib, u hayotiy voqealar asosida yaxshi aks ettirilgan va ochib berilgan.

Elimiz ardog‘idagi san’atkorlar Po‘lat Normatov – Erkintoy, Gavhar Hakimova – Malika Yusupovna, Madina To‘xtayeva – Hakima (*qizning onasi*), Bahodir Mirmaksudov – Izzat Otaqulovich (*qizning otasi*), Aziza Begmatova – Mariyamxon, Shaxlo Xojobiyeva – Nargiza rollarini mahorat bilan ijro etishdi.

Talabalarning ma’naviy-ma’rifiy soatlarni to‘g‘ri tashkillashtirish maqsadida teatrga uyuştilrilgan tashrif asnosida nafaqat madaniy hordiq chiqardik, jamiyatning oltin bo‘g‘imi bo‘lmish oila qurishda nimalarga ahamiyat berish kerakligini ham yanada yaxshiroq bilib oldik.

**Sitora SHODMONQULOVA,  
Toshkent pediatriya tubbiyot instituti 2-pediatriya fakulteti  
103-guruh talabasi**



## BERDAQ TAVVALUDINING 194 YILLIGI



Har bir millatning o‘zligini anglashida adabiy merosi muhim o‘rin tutadi. Milliy madaniyat, qadimdan shakllanib kelgan bebahod qadriyatlar ham inson ruhining kamol topishiga o‘z ta’sirini sezilarlar darajada o‘tkazadi. O‘zbek xalqida, azaldan buyuk ajodolar xotirasiga bo‘lgan hurmat va e’tibor tuyg‘ulari muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, har yili Amir Temur, Alisher Navoiydan tortib Oybek, Ozod Sharafiddinovlarning tavallud kuniga bag‘ish-

lab o‘tkaziladigan bayram dasturlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu bilan bir qatorda qoraqalpoq adabiyoti va xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan e’tibor ham mamlakatimizda olib borilayotgan oqilonasiyosatning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Qoraqalpoq xalqining asl farzandi va qoraqalpoq adabiyotining asoschilaridan biri hisoblangan Berdimurod Qarq‘aboy o‘gli Berdaqning mana shu yil 194 yillik shodiyonasi adabiyot ixlosmandlari, keng jamoatchilik tomonidan munosib nishonlandi. Adibning 194 yilli- gi nafaqat Qoraqalpog‘istonda, balki O‘zbekistonning ham har bir viloyatida katta tantanalarga ulanib ketdi. Mana shunday tanta-

naldan biri Toshkent Pediatriya

tibbiyot institutida o‘tkazilgan bayram dasturidir.

Tashkillashtirilgan badiiy kechada institutning Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori Muborak Axmedova so‘zga chiqib, Berdaqning ijodi haqida o‘zingin fikr-mulohazalarini bildirdi. So‘ng esa “Berdaq” nomidagi ko‘krak nishoni sohibalari G.Quranbayeva va M.Akbarovlar ham adibning hayot yo‘li, boy adabiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlar hamda videoroliklarni o‘quvchilar e’tiboriga taqdim etdilar.

Talabalar turar joyida ham talabalar tomonidan “Berdaq dostonlari yoshlar talqinida” nomli she’riyat kechasi uyushtirildi. Shoirning dostonlari asosida tayyorlangan sahna ko‘rinishlari va badiiy chiqishlar tadbiriga bayramona ruh bag‘ishladi.

*Nasiba Mehmonova*

## O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o‘quvvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:*

**PROFESSORLAR:** Teri va tanosil, bolalar teri va tanosil kasalliklari, OITS; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi.

**DOTSENTLAR:** Gistologiya; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Akusherlik va ginekologiya; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish; Umumi xirurgiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ.

**O‘QITUVCHILAR:** Pedagogika va psixologiya.

**ASSISTENTLAR:** Fiziologiya; Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Bolalar yuqumli kasalliklari; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish; Akusherlik va ginekologiya; Biofizika, tibbiy informatika; Tibbiy biologiya, umumiy genetika; Xirurgik kasalliklari; Gospital pediatriya №1, xalq tabobati; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ.

**Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekat. 06.12.2021.**

 <p>SALOHLIK - TUMAN BOYLIGI XIZORIYE VARDI - BOSSUTTO SITIMI <b>PEDIATR</b> TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИУТА</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, <b>Nashr uchun mas’ul:</b> Sh. Abdushoshimova</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o‘rinbosari),</b> A.M. Mannanov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.  Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p>
			<p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>